



O'zbekiston Respublikasi
Tog'-kon sanoati
va geologiya
vazirligi

№ 3896-4466-e03f-3b51-8c48-1249-9959
Hujjat yaratilgan sana: 2024-09-10
Ariza raqami: 147187907

Hujjat berilgan: XUDAYBERDIYEV XURSHID SOBIROVICH
JShShIR: 31511810171728

Noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan yer qa'ri
uchastkasidan foydalanish huquqi uchun

RUXSATNOMA

SERIYASI: **SM**, TARTIB RAQAMI: **0187**, TURI: **F5**

Ushbu ruxsatnoma "**GOLDENSAND**" **MCHJ** ga berildi.

Ruxsatnoma Foydali qazilmalarni kavlab olish uchun yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqini tasdiqlaydi.

Yer qa'ri uchastkasining nomi (yoki raqami): "**Yarkudukskoye (1969)**" **1-uchastka**

Foydali qazilma turi: **Qum**

Yer qa'ri uchastkasi **Samarqand viloyati, Nurobod tumani** da joylashgan.

Ruxsatnomaning amal qilish muddati: **10.09.2029**

Quyidagilar ruxsatnomaning ajralmas qismi hisoblanadi:

Yer qa'ridan foydalanish shartlari llova 5 varaqda

Ruxsatnoma berilgan sana: **10.09.2024**

Mazkur hujjat Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 sentyabrdagi 728-son qaroriga muvofiq Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida shakllantirilgan elektron hujjatning nusxasi bo'lib, davlat organlari tomonidan ushbu hujjatni qabul qilishni rad etishlari qat'iyon taqiqlanadi. Hujjat haqiqiylikini repo.gov.uz veb-saytida hujjatning noyob raqamini kiritib yoki mobil telefon yordamida QR- kodni skaner qilish orqali tekshirish mumkin.

8982



Noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan
yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqi
uchun ruxsatnomaga ilova
"№10486440" lot bo'yicha
25.08.2024-yil

"Yarkudukskoye (1969)" 1-uchastka kondan Qumni qazib olish uchun yer qa'ri uchastkasidan

FOYDALANISH SHARTLARI

Yer qa'ri uchastkasidan foydalanishga doir mazkur shartlar O'zbekiston Respublikasining "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi Qonuni talablariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-martdagi "Yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun ruxsatnomalar berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 133-sonli qaroriga va O'zbekiston Respublikasining yer qa'ridan foydalanish sohasidagi faoliyatni tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Auksion g'olibiga "Yarkudukskoye (1969)" 1-uchastka konidan Qumni qazib olish uchun yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqiga oid ruxsatnoma (keyingi o'rinlarda – ruxsatnoma) berilmoqda.

"Yarkudukskoye (1969)" 1-uchastka koni Samarqand viloyati Nurobod tumanida joylashgan. Qumning belgilangan tartibda ushbu uchastka bo'yicha tasdiqlangan zaxiralari 1062,2 ming metr kub tashkil qiladi.

Ruxsatnomaga muvofiq auksion g'olibiga yer qa'ridan foydalanishga oid quyidagi shartlar belgilanadi va ular ruxsatnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

Yer qa'ridan foydalanish muddati ruxsatnoma berilgan sanadan boshlab 5 yilga, texnik-iqtisodiy asoslar taqdim etilgandan so'ng – foydali qazilma konini texnik-iqtisodiy asoslarda belgilangan muddatiga, biroq yigirma besh yildan oshmaydigan muddat o'rnatiladi.

I. Auksion g'olibining majburiyatlari

1. "Yarkudukskoye (1969)" 1-uchastka konidan Qumni qazib olish uchun yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqi (ruxsatnoma) berilgan kundan e'tiboran, qazish ishlari boshlanishiga qadar:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-martdagi 133-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini olish uchun ruxsatnomalar berish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 32-bandida ko'zda tutilgan hujjatlarni (texnik-iqtisodiy asoslar, Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan atrof muhitga ta'sir ko'rsatishi to'g'risidagi ariza loyihasiga berilgan ijobiy davlat ekologik ekspertiza xulosasi) olti oylik muddat ichida Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi "Yer qa'ridan foydalanish markazi" DMga (keyingi o'rinlarda- Yer qaridan foydalanish markazi) "Litsenziya" axborot tizimi yoki YAIDXP orqali taqdim etish;

ruxsatnoma rasmiylashtirilgan yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan olti oy ichida ushbu shartlarning 1-bandida ko'rsatilgan hujjatlar to'plami Yer qa'ridan foydalanish markaziga topshirilmagan taqdirda, rasmiylashtirilgan ruxsatnomani Nizomning 57-bandiga muvofiq muddatidan oldin bekor qilinishi bo'yicha tegishli choralar ko'rilishiga asos bo'ladi;

uch oy muddatda "Yarkudukskoye (1969)" 1-uchastka konining qismini o'zlashtirishning ishchi loyihasini ishlab chiqadi va belgilangan tartibda kelishadi;

ishchi loyiha asosida uch oylik muddatda kon ajratmasi loyihasini ishlab chiqadi hamda ko'rib chiqish va kelishish uchun Tog'-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasiga taqdim etadi;

kon ajratmasi olinganidan so'ng bir oy ichida joyida kon ajratmasining burchak nuqtalarini reperlar bilan belgilaydi va ularni reja-balandlik bo'yicha bog'laydi (belgilaydi);

OVOS (AMTT) ishlab chiqadi va yakuniy bosqichini belgilangan tartibda davlat ekologiya ekspertizasiga – O‘zbekiston Respublikasining “Ekologiya ekspertiza to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq ekologik oqibatlar haqidagi buyurtmani taqdim qiladi;

Qumni qazib olish va uni qayta ishlash texnologiyasi jarayoniga zamonaviy texnikani joriy qilish yo‘li bilan ikki yil mobaynida texnik-iqtisodiy asoslarni taqdim etgan kundan boshlab loyihada ko‘rsatilgan so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda minimal investitsiya majburiyatlarini qo‘yilishini ta‘minlaydi.

2. Aukcion g‘olibi konidan foydalanish jarayonida:

O‘zbekiston Respublikasining “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasining “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga, O‘zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish, suv va suvdan foydalanish to‘g‘risidagi qonun talablariga, yer qa‘rini geologik o‘rganish, foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qiladi;

har yili 25-dekabr qadar keyingi yil uchun kon ishlarini rivojlantirish rejalarini ishlab chiqadi va Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi bilan kelishgan holda tasdiqlaydi;

belgilangan tartibda karerga geologiya-marksheyderlik xizmat ko‘rsatilishini ta‘minlaydi;

har yili 1-fevral qadar belgilangan tartibda Davlat geologiya fondiga kon bo‘yicha zaxiralarning holati va foydali qazilmalarning harakati to‘g‘risida axborot (5 GR shakli bo‘yicha hisobot) topshiradi;

Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi bilan kelishilganidan so‘ng, qazib olish jarayonida qazib olingan va yo‘qotilgan foydali qazilmalarni hisobdan chiqarishni amalga oshiradi;

O‘zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligi bilan belgilangan tartibda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘laydi;

texnikalarga yonilg‘i quyish uchun himoyalangan yerlarga neft mahsulotlari tushishining oldini olinishi ta‘minlanadigan joylarni tashkil qiladi;

erroziya va deflyasion jarayonlar rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun ishlar yakunlanganidan so‘ng buzilgan yerlarni o‘z vaqtida texnik va biologik tiklash ishlarini amalga oshiradi;

relefga, tuproq va o‘simlik qoplamiga ta‘sirni cheklash maqsadida transportlarni yo‘ldan tashqarida harakatlanishiga yo‘l qo‘ymaydi;

texnogen mineral hosilalarni saqlash va qayta ishlashni belgilangan tartibda ta‘minlash;

yer qa‘ridan foydalanish sohasida, xavfli ishlar, ishlab chiqarish, xavfli tovarlar va moddalar aylanmasi, portlovchi moddalarga Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi ruxsat berish jarayonlaridan o‘tishni ta‘minlash;

me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq, ishlatiladigan mavjud yoki jalb qilinadigan texnika va asbob-uskunalar bilan jihozlashni ta‘minlash;

agar aukcion g‘olibi yer qa‘ridan foydalanish huquqiga ruxsatnoma berilgan kundan boshlab, bir yil davomida yer qa‘ridan foydalanishga kirishilmasa, vakolatli organ tomonidan yer qa‘ridan foydalanish huquqi muddatdan oldin bekor qilinishi bo‘yicha choralar ko‘riladi.

3. Aukcion g‘olibi ijtimoiy majburiyatlari:

qazish ishlari olib boriladigan viloyat va tumanda yashovchi aholisi uchun kelishilgan texnik-iqtisodiy asoslash loyihasiga muvofiq ish o‘rni tashkil etiladi;

"Yarkudukskoye (1969)" 1-uchastka konidan qazib olish bilan bog‘liq ishlarni olib borishga jalb qilish maqsadida mutaxassislar tayyorlanishi va o‘qitilishini tashkil qiladi;

"Yarkudukskoye (1969)" 1-uchastka koniga infrastruktura tashkil qiladi.

II. Yer uchastkasidan ijara huquqi asosida foydalanish shartlari

4. Ijaraga beruvchi 20__-yil “__” _____dan _____ yil muddatga Samarqand viloyati

Nurobod tumanida joylashgan 13,3 gektar yer uchastkasini ijaraga topshiradi, Ijaraga oluvchi esa qabul qilib oladi.

5. Yer uchastkasi Qazish ishlarini olib borish uchun beriladi.

6. Yer qa'ridan foydalanish maqsadlari uchun yer uchastkasini belgilangan tartibda olib qo'yish (sotib olish) bilan bog'liq xarajatlar miqdori _____ so'mni tashkil etadi.

7. Yer qa'ridan foydalanuvchi ijaraga berilgan yer uchastkasi va yuritadigan faoliyati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan va qonunchilikda nazarda tutilgan soliqlar va to'lovlarni amalga oshiradi, shu jumladan yer solig'ining sub'ekti hisoblanadi.

8. Ijaraga beruvchi belgilangan tartibda quyidagi huquqlarga ega:

- ijaraga oluvchi tomonidan mazkur shartlar buzilganda ushbu shartlarni o'zgartirishini yoki bekor qilinishini talab qilish;

- ijaraga oluvchi tomonidan mazkur shartlar bajarilishini nazorat qilish.

9. Ijaraga beruvchi quyidagilarga majbur:

- ijaraga olingan yer uchastkasining belgilangan muddatlarda, mazkur shartlarga muvofiq holatda berilishini ta'minlash;

- ijaraga oluvchining qonun hujjatlarida belgilangan huquqlariga rioya qilish.

10. Ijaraga oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

- yer uchastkasida faoliyat uchun berilgan maqsadida foydalanish;

- ichki xo'jalik maqsadlari uchun ishlab chiqarish hamda boshqa imoratlar va inshootlarni belgilangan tartibda barpo etish.

11. Ijaraga oluvchi quyidagilarga majbur:

- yer qa'ridan foydalanish maqsadlari uchun yer uchastkasini belgilangan tartibda olib qo'yish (sotib olish) bilan bog'liq xarajatlar keyinchalik yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha markazlashtirilgan jamg'armaga ruxsatnoma rasmiylashtirilgunga qadar qoplab berish (amalga oshirish);

- yerdan uning belgilangan maqsadiga qat'iy muvofiq oqilona foydalanish, ishlab chiqarishning tabiatni muhofaza qiluvchi texnologiyalarini qo'llash, o'z xo'jalik faoliyati natijasida hududdagi ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo'l qo'ymaslik;

- ishlayotgan irrigatsiya va meliorativ tarmoqlarni, muhandislik kommunikatsiyalarini soz holatda saqlash;

- yerlarni muhofaza qilish bo'yicha qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan kompleks tadbirlarni amalga oshirish;

- yer solig'larini o'z vaqtida to'lash;

- arxitektura-shaharsozlik normalari va talablariga rioya etish.

12. Ushbu shartlarni amalga oshirishda paydo bo'ladigan nizolar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

13. Mazkur foydalanish shartlarining 4-12 bandlari tegishli yer uchastkalari mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilangan tartibda Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi vazirligiga doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilganida qo'llaniladi.

III. "Yarkudukskoye (1969)" 1-uchastka koni foydalanish bilan bog'liq boshqa shartlar

14. Mazkur ruxsatnomaga muvofiq "Yarkudukskoye (1969)" 1-uchastka konidan qazib olingan Qum O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida boshqa holarda ko'zda tutilmagan bo'lsa, auksion g'olibi mulki hisoblanadi.

15. Yer qa'ri uchastkasidan foydalanishga doir mazkur shartlarning to'liq yoki qisman bajarishni iloji bo'lmasligiga olib kelgan, belgilangan tartibda tasdiqlangan fors-major vaziyatlar yuzaga kelganda,

ularni yuzaga kelganligi haqida o'z vaqtida Yer qa'ridan foydalanish markaziga ma'lum qilingan va zararni oldini olish uchun imkon qadar choralar ko'rilganda auksion g'olibi javobgarlikdan ozod etiladi.

16. Auksion g'olibini qayta tashkil etishda yoki uning nomini o'zgarishida ta'sis etuvchi hujjatlarga o'rnatilgan tartibda o'zgartirishlar kiritilgandan so'ng besh ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda Yer qa'ridan foydalanish markaziga ushbu ruxsatnomani qayta rasmiylashtirish to'g'risida "Litsenziya" axborot tizimi yoki YAIDXP orqali ariza beradi.

17. Yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun ruxsatnomalarni ular berilgan sanadan boshlab ikki yil mobaynida ruxsatnomalar rasmiylashtirilgan yer qa'ri foydalanuvchilaridan boshqa shaxslar foydasiga voz kechish, shu jumladan yer qa'ri foydalanuvchilarining ta'sischilari (operatsion faoliyatini boshqarish ovozigaga ega majoritar aksiyadorlari)ni to'liq o'zgartirish taqiqlanadi.

"Yarkuduskoye (1969)" 1-uchastka konidan Qumni qazib olish uchun yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqini (to'liq yoki qisman) boshqa yuridik shaxsga berishni kelishish ruxsatnoma egasining Yer qa'ridan foydalanish markaziga "Litsenziya" axborot tizimi yoki YAIDXP orqali O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-martdagi 133-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 6-ilovasiga muvofiq beriladigan arizasi bo'yicha amalga oshiriladi.

18. Auksion g'olibiga berilgan ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish va uni bekor qilish O'zbekiston Respublikasining "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasining "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

Bunda ruxsatnoma sud tomonidan bekor qilinadigan holatlar vujudga kelganida, ruxsatnomani bekor qilish to'g'risidagi ariza o'rnatilgan tartibda sud organlariga kiritiladi

19. Auksion g'olibi tomonidan yer qa'ridan foydalanish shartlariga rioya qilishini, qonunchilikda belgilangan tartibda joylardagi davlat hokimiyat organlari, Tog'-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi va Yer qa'ridan foydalanish markazi tomonidan amalga oshiradi.

20. Auksion g'olibi "Yer qa'ridan foydalanish markazi" DMga doimiy foydalanishi huquqi asosida ajratilmagan yer uchastkalaridan foydalanish bilan bog'liq masalalarni (ijaraga olish, servitut, kadastr yig'ma jildi va boshqalar) hal qilishni o'z bo'yniga oladi.

21. "Yarkuduskoye (1969)" 1-uchastka konidan qazib olish uchun yer qa'ridan foydalanishning ushbu shartlari, bir xil kuchga ega bo'lgan, ikki nusxada tuzilgan, ulardan biri Yer qa'ridan foydalanish markazida, ikkinchisi auksion g'olibida, va u va yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqi (ruxsatnoma) berilgan kundan boshlab kuchga kiradi.

22. Qo'shimcha shartlar: -

Ishtirokchi

Buyurtmachi

"GOLDENSAND" MCHJ

**"YER QA'RIDAN FOYDALANISH
MARKAZI" DM**

STIR/JSISHIR: 311568949;

STIR: 200898357;

Rahbar/Fuqaro: MIRZAKULOV KARIMJON **Direktor:** MIRXADIYEV SHUXRAT
RAVSHAN O'G'LI KARIMOVICH

ERI orqali imzolangan.

ERI orqali imzolangan.

